XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI BAHOLASHNING MEZON VA USULLARI	803
Isakova Naima Ikromjonovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	809
Abdullayeva Iroda Shuxrat qizi	
MULTIMODAL TRANSPORT OQIMLARI SHAROITIDA LOGISTIKA XABLAR JOYLASHUVINI TANLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	813
Umirzaqov Davlatjon Dolimjon o'g'li, Axmedova Muslima Djalolovna	
SUG'URTA ZAXIRALARINI MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTDA AKS ETTIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	818
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	826
Nazarov Nazirjon Narzilloevich	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH VA ULARNI TAHLIL QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	830
Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna	
XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOJ-TARIF SIYOSATINI METODOLOGIK TAKOMILLASHTIRISH MODELLARI	837
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA)	844
Bekmetov Xursandbek Ilxamovich	
SOTISH KANALLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH	850
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
MINTAQ IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURIYATI	857
Achilova Firusa Kurbanovna	
TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH VA INVESTITSION KREDITLASH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH TAHLILI	862
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA BAHOLASH MEZONLARI	867
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA MANBALARI	874
Rustamova Dilsabaxon Djurayevna, Baratov Maxsudali Nazaraliyevich	
KORXONA FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	881
Xashimova Dilyora Paxritdinovna	
TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI (DXSH) LOYIHALARINI BOSHQARISHDA ESG VA BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (UNSDG) KONSEPSIYALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	888
Masharipov Ravshan Rajabboyevich	



IQTISODIY, MOLIYAVIY, INVESTITSIYA VA SOLIQ SALOHİYATINING O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY XUSUSIYATLARI.....	893
Jurayev Xusan Atamuratovich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	900
Kadirov Abdumalik Matkarimovich, Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY-EKOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	904
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi, Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA)	909
Kurbanov Xayrilla	
MAMLAKATIMIZNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	915
Mirzayev Rustam Ro'ziyevich	
РЫНОЧНЫЙ СПРОС И РАВНОВЕСИЕ	921
Камилова Наргиза Абдукажхоровна, Ашуров Сардоржон Зафаржонович	
XORIJIIY DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI.....	925
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
MARKETING-INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAVDO KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	929
Ismoilov Lazizbek Rasuljon o'g'li	
KORXONADA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINING MAVJUD MODELLARINING RETROSPEKTIVASI.....	934
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
SANOATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATIGA ESG TAMOIYILLARINI JORIY ETISHNING ROLI	940
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
TIBBIY XIZMATLARNI MOLIYALASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	946
Isroilov Bohodir Ibragimovich, Muhammadiev Ramz Zoirjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI	952
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	



TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI

O'ktamova Nozima Narzulla qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti, PhD

ORCID: 0009-0009-4135-1951

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida aktivlar diversifikatsiyasi va raqamli transformatsiya strategiyalarining banklarning moliyaviy barqarorligi hamda rentabelligiga ta'siri kompleks tarzda tahlil qilinadi. So'nggi yillarda bank sektori texnologik innovatsiyalarning jadallashuvi, raqamli xizmatlar ko'lamining kengayishi hamda global moliyaviy muhitdagi o'zgarishlar sharoitida o'z strategik yondashuvlarini takomillashtirishga intilmoqda. Xususan, aktivlarni diversifikatsiyalash va raqamli transformatsiyani uyg'unlashtirish bank faoliyatining muhim strategik yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqolada bank aktivlari tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi hamda ularning moliyaviy natijalarga ta'siri empirik tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqot jarayonida bank aktivlari dinamikasi, o'sish tendensiyalari va risklarni boshqarish mexanizmlari regressiya va trend tahlili usullari yordamida baholandi. Olingan natijalar raqamli transformatsiya bank aktivlari diversifikatsiyasini chuqurlashtirish, risklarni muvozanatlashtirish va banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, bank aktivlari, aktivlar diversifikatsiyasi, moliyaviy barqarorlik, regressiya tahlili, vaqt qatori, iqtisodiy tahlil, prognozlash, raqamli transformatsiya, bank strategiyasi.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the impact of asset diversification and digital transformation strategies on the financial stability and profitability of commercial banks. In recent years, the banking sector has increasingly focused on improving strategic approaches in response to rapid technological innovation, the expansion of digital services, and changes in the global financial environment. In particular, the integration of asset diversification and digital transformation has emerged as a key strategic direction in modern banking development. The study presents an empirical assessment of changes in the structure of bank assets, the implementation of digital technologies, and their influence on financial performance. The dynamics of bank assets, growth trends, and risk management mechanisms are evaluated using regression and trend analysis methods. The findings confirm that digital transformation plays a significant role in deepening asset diversification, balancing risks, and strengthening the financial stability of commercial banks.

Key words: commercial banks, bank assets, asset diversification, financial stability, regression analysis, time series, economic analysis, forecasting, digital transformation, banking strategy.

Аннотация. В статье представлен комплексный анализ влияния стратегий диверсификации активов и цифровой трансформации на финансовую устойчивость и рентабельность коммерческих банков. В условиях ускоренного технологического развития, расширения цифровых банковских услуг и изменений глобальной финансовой среды банковский сектор ориентируется на совершенствование своих стратегических подходов. Особое значение в этом процессе приобретает интеграция диверсификации активов и цифровой трансформации как ключевых направлений устойчивого развития банков. На основе эмпирического анализа в статье рассматриваются структурные изменения в составе банковских активов, внедрение цифровых технологий и их влияние на финансовые результаты. В ходе исследования динамика банковских активов, тенденции их роста и механизмы управления рисками оцениваются с использованием методов регрессионного и трендового анализа. Полученные результаты подтверждают, что цифровая трансформация является важным фактором углубления диверсификации активов, сбалансирования рисков и укрепления финансовой устойчивости банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковские активы, диверсификация активов, финансовая устойчивость, регрессионный анализ, временные ряды, экономический анализ, прогнозирование, цифровая трансформация, банковская стратегия.



KIRISH

Zamonaviy bank tizimida tijorat banklarining barqarorligi va raqobatbardoshligi bevosita aktivlar portfelining sifatli shakllanishi hamda diversifikatsiyalash darajasiga bog'liqdir. Aktivlarni diversifikatsiyalash bank risklarini maqbullashtirish, daromad manbalarining muvozanatini ta'minlash va moliyaviy zarbalarga nisbatan barqarorlikni kuchaytirishning muhim mexanizmi hisoblanadi. An'anaviy sharoitda mazkur jarayon asosan kredit portfelini tarmoqlar va mijozlar segmentlari bo'yicha taqsimlash bilan cheklangan bo'lsa, hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu yondashuv sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

So'nggi yillarda raqamli transformatsiya bank faoliyatining deyarli barcha yo'nalishlariga tizimli ravishda joriy etilmoqda. Big data texnologiyalari, sun'iy intellektga asoslangan tahlil vositalari, masofaviy bank xizmatlari, avtomatlashtirilgan risklarni baholash tizimlari hamda raqamli to'lov platformalari banklarga nafaqat operatsion samaradorlikni oshirish, balki aktivlar tarkibini sifat jihatidan yangilash imkonini bermoqda. Natijada tijorat banklari yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish, kichik va o'rta biznes subyektlari bilan hamkorlikni kengaytirish hamda chakana mijozlar bazasini faol rivojlantirish orqali aktivlar diversifikatsiyasini izchil chuqurlashtirmoqda.

O'zbekiston bank tizimida ham raqamli transformatsiya davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida bank sektorini modernizatsiya qilish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Mazkur strategiya doirasida tijorat banklarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion bank xizmatlarini kengaytirish va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayonda yirik tijorat banklari, jumladan, Kapitalbank raqamli xizmatlarni faol joriy etish orqali o'z aktivlar portfelini diversifikatsiyalash va moliyaviy risklarni samarali taqsimlash yo'lidan bormoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi Kapitalbank faoliyati misolida raqamli transformatsiyaning tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalash jarayoniga ta'sirini empirik tahlil asosida o'rganish hamda iqtisodiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida aktivlar diversifikatsiyasi va raqamli transformatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik so'nggi yillarda moliya, iqtisodiyot va bank ishi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Klassik portfel nazariyasiga ko'ra, aktivlar diversifikatsiyasi risklarni maqbullashtirish va daromadlilikni barqarorlashtirishning samarali vositasi hisoblanadi. Mazkur yondashuv bank aktivlari portfeliga tatbiq etilganda, kredit, investitsion va likvid aktivlar o'rtasidagi mutanosiblik bank barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida talqin etiladi.

Stiroh (2004) hamda DeYoung va Torna (2013) tadqiqotlarida bank daromadlari va aktivlari diversifikatsiyasining bank risk darajasiga ta'siri empirik jihatdan asoslab berilgan. Mualliflarning xulosalariga ko'ra, diversifikatsiya jarayonining samaradorligi uning strategik va institutsional boshqaruv mexanizmlari bilan uyg'unligiga bevosita bog'liq bo'lib, to'g'ri tashkil etilgan diversifikatsiya bank faoliyatining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv diversifikatsiyani bank menejmenti bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Raqamli transformatsiya bank faoliyatiga keng joriy etilishi bilan mazkur munosabat yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Vives (2019) hamda OECD (2020) hisobotlarida raqamli texnologiyalar banklar uchun yangi biznes modellari, mijozlar segmentlari va moliyaviy instrumentlarni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirayotgani qayd etilgan. Shuningdek, ushbu tadqiqotlarda raqamli transformatsiya banklarning operatsion samaradorligini oshirishi, kredit skoring jarayonlarining aniqligini yaxshilashi va aktivlarni joylashtirish mexanizmlarini tezkorlashtirishi ilmiy asosda yoritilgan.

Demirgüç-Kunt va Martinez Peria (2018) tadqiqotlariga ko'ra, raqamli bank xizmatlari rivojlangan moliya institutlarida aktivlar portfeli nisbatan yuqori darajada diversifikatsiyalangan bo'lib, kichik va o'rta biznes subyektlariga yo'naltirilgan kreditlar ulushi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Ushbu natijalar raqamli transformatsiyaning aktivlar diversifikatsiyasini chuqurlashtirishdagi ijobiy rolini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda raqamli transformatsiya bilan bog'liq yangi imkoniyatlar qatorida zamonaviy risk omillariga ham e'tibor qaratiladi. Basel qo'mitasining 2021-yilgi hisobotida kiberxavfsizlik, texnologik provayderlar bilan hamkorlikka oid risklar va model risklari bank aktivlari barqarorligini ta'minlash jarayonida muhim boshqaruv obyektlari sifatida ko'rib chiqiladi. Bu holat raqamli transformatsiya jarayonida risklarni kompleks va tizimli boshqarish zarurligini ko'rsatadi.

Nazariy jihatdan, raqamli bank faoliyati innovatsion rivojlanish nazariyasi, institutsional iqtisodiyot hamda raqamli transformatsiya konsepsiyasiga asoslanadi. Xususan, Y. Shumpeterning innovatsion rivojlanish nazariyasiga ko'ra, texnologik yangiliklar iqtisodiy o'sishning muhim drayveri bo'lib, moliya sektorida yangi xizmatlar va instrumentlarning shakllanishiga zamin yaratadi.



So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida ham raqamli transformatsiya jarayonlari jadal rivojlanib, bank xizmatlari ko'rsatish sifati va qamrovi sezilarli darajada kengaymoqda. Markaziy bankning 2025-yilgi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan onlayn bank xizmatlari soni 300 tadan oshgan, mobil ilovalardan foydalanuvchilar soni esa 18 milliondan ortiqni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatda raqamli bank ekotizimi izchil shakllanib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asosan, 2024–2025-yillar davomida raqamli to'lovlar hajmi umumiy to'lov aylanmasining 65 foizidan ortig'ini tashkil etgan. Mazkur holat aholining va biznes subyektlarining raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchi va talabining ortib borayotganini hamda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi barqaror rivojlanayotganini tasdiqlaydi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham raqamli transformatsiya jarayonlari keng yoritilgan. Jumladan, Karimov A. (2022) o'z tadqiqotida raqamli transformatsiya banklarning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion xizmatlarni rivojlantirish va mijozlar bilan interaktiv hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlarini tahlil qilgan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida aktivlar diversifikatsiyasi va raqamli transformatsiya o'rtasidagi bog'liqlik murakkab hamda ko'p qirrali jarayon bo'lib, u bank barqarorligi, risklarni boshqarish va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu bilan birga, O'zbekiston tijorat banklari misolida mazkur munosabatni empirik regressiya modellari asosida chuqur tahlil qiluvchi tadqiqotlar cheklangan. Mazkur ilmiy ish aynan ushbu yo'nalishda nazariy va amaliy jihatdan muhim ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tijorat banklari aktivlari hajmining o'sish dinamikasi hamda rivojlanish tendensiyalari statistik va ekonometrik tahlil metodlari asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida banklarning rasmiy choraklik va yillik moliyaviy hisobotlari asosiy axborot manbasi sifatida qo'llanildi.

Bank aktivlariga oid ma'lumotlar 2021–2025-yillar kesimida shakllantirilib, dastlab tavsifiy statistik tahlil yordamida ularning o'sish sur'atlari, tarkibiy o'zgarishlari va umumiy rivojlanish tendensiyalari aniqlandi. Mazkur bosqichda dinamik qatorlar tahlili bank aktivlarining vaqt bo'yicha o'zgarishini baholash imkonini berdi.

Keyingi bosqichda bank aktivlari hajmi va vaqt omili o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida vaqt qatoriga asoslangan chiziqli regressiya modeli qurildi. Model parametrlari eng kichik kvadratlar usuli yordamida baholanib, natijalar bank aktivlari rivojlanishining barqaror tendensiyalarini aniqlash va prognoz qilish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda tijorat banklarida aktivlar diversifikatsiyasi jarayonida raqamli transformatsiyaning o'rni empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda O'zbekiston bank tizimida 2025-yilni yuqori sof foyda bilan yakunlagan Kapitalbankning moliyaviy hisobotlari, asosiy statistik ko'rsatkichlari hamda regressiya tahlili natijalari asosiy axborot bazasi sifatida qo'llanildi. Ushbu ma'lumotlar asosida bank aktivlarining dinamikasi, tarkibiy tuzilmasi va o'sish tendensiyalari kompleks tarzda o'rganildi.

Tahlil jarayonida bank aktivlari hajmining vaqt bo'yicha o'zgarishi, o'sish sur'atlari hamda ularning raqamli transformatsiya jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, raqamli bank xizmatlarining kengayishi, masofaviy operatsiyalar ulushining ortishi va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining joriy etilishi bank aktivlari tarkibining diversifikatsiyalashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlashtirildi.


Olingan empirik natijalar bank aktivlari o'sishining barqarorligini, diversifikatsiya darajasining izchil oshib borayotganini hamda raqamli texnologiyalarning ushbu jarayondagi muhim strategik ahamiyatini asoslab beradi. Shu bilan birga, tahlil natijalari raqamli transformatsiyaning bank faoliyatiga ta'siri nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlarda, balki aktivlar sifati, risklarni boshqarish samaradorligi va operatsion moslashuvchanlik kabi sifat jihatlarida ham namoyon bo'layotganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Kapitalbank aktivlarining 2021–2025-yillar oralig'idagi ko'rsatkichlari (ming so'mda)

Yillar	Q1	Q2	Q3	Q4
2021	7 694 943 305	9 783 829 483	12 012 857 604	
2022	16 183 381 376	22 516 625 029	25 705 504 764	28 906 947 045
2023	31 205 946 036	32 993 012 393	36 840 561 674	41 865 902 965
2024	41 649 601 784	42 798 869 193	45 241 071 835	47 364 685 024
2025	47 831 123 405	50 891 380 995	51 814 154 553	



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Kapitalbank aktivlari 2022–2025-yillar davomida barqaror va uzluksiz o'sish tendensiyasini namoyon etgan(1-rasm).



1-rasm. Kapitalbank aktivlari o'sishining trend chizig'i (2021–2025-yillar)

Bank aktivlari hajmining o'sish tendensiyasini aniqlash maqsadida chiziqli regressiya modeli qurildi. Model quyidagi umumiy ko'rinishga ega:

$$Y=a+bX$$

bu yerda bbb — bank aktivlari o'sish koeffitsienti, aaa — erkin had, XXX — yil ko'rsatkichi, YYY — bank aktivlari hajmi (trln so'mda).

Hisob-kitoblar natijasida regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishga keltirildi:

$$Y=-19801.2122+9.8060X$$

Mazkur regressiya tenglamasi tahliliga ko'ra, Kapitalbank aktivlari har yili o'rtacha 9,8 trln so'mga oshib borganini aniqlash mumkin. Bu holat bank aktivlarining barqaror va izchil o'sish tendensiyasiga ega ekanini ko'rsatadi.

Bank aktivlari bo'yicha chiziqli regressiya modeli eng kichik kvadratlar usuli (OLS) asosida baholandi. Modelning determinatsiya koeffitsienti $R_2=0.926$ $R^2 = 0.926$ $R_{2=0.926}$ ni tashkil etib, bu bank aktivlari hajmidagi o'zgarishlarning 92,6 foizi vaqt omili bilan izohlanishini anglatadi. Ushbu natija tanlangan regressiya modelining yuqori izohlash qobiliyatiga ega ekanini hamda bank aktivlari o'sishining barqaror iqtisodiy asosga ega ekanini tasdiqlaydi.

Olingan empirik natijalar Kapitalbank aktivlari o'sishining tasodifiy emas, balki tizimli va barqaror trend asosida shakllanayotganini ko'rsatdi. Qurilgan regressiya modeli va determinatsiya koeffitsientining yuqori qiymati (R^2) bank aktivlari dinamikasi raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqligini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Raqamli kredit scoring tizimlari, masofaviy bank xizmatlari, real vaqt rejimidagi monitoring mexanizmlari, zamonaviy to'lov platformalari hamda avtomatlashtirilgan risklarni boshqarish tizimlarining joriy etilishi bankka aktivlarni tezkor, xavfsiz va yuqori darajada diversifikatsiyalangan holda joylashtirish imkonini bermoqda. Mazkur jarayonlar natijasida:

- kredit portfeli segmentlar bo'yicha muvozanatlashib bormoqda;
- investitsion va likvid aktivlar ulushi izchil ortmoqda;
- aktivlar sifatini monitoring qilish va nazorat mexanizmlari kuchaymoqda.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, raqamli transformatsiya tijorat banklarida aktivlar diversifikatsiyasining nafaqat texnologik, balki strategik va institutsional omiliga aylanib bormoqda. Ushbu holat bank barqarorligini mustahkamlash, risklarni samarali boshqarish va uzoq muddatli moliyaviy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada 2021–2025-yillar davomida tijorat banki aktivlari hajmining o'sish dinamikasi statistik va ekonometrik usullar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan empirik tahlil natijalari bank aktivlari mazkur davr



mobaynida barqaror va nisbatan yuqori sur'atlarda o'sib borganini ko'rsatdi. Xususan, bank aktivlari hajmi 2021-yilda 12,0 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 51,8 trln so'mga yetib, qariyb to'rt barobarga oshgan.

Regressiya tahlili natijalariga ko'ra, bank aktivlari hajmi yiliga o'rtacha 9,8 trln so'mga oshib borganini aniqlanib, bu bankning moliyaviy salohiyati va bozor pozitsiyasi izchil mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda o'sish sur'atlarining nisbatan sekinlashuvi bank faoliyatida barqarorlashuv va sifat jihatdan rivojlanish bosqichi shakllanayotganini ko'rsatadi. Mazkur holat bank aktivlari boshqaruvining yanada puxta va ehtiyotkor strategiya asosida olib borilayotganini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tahlil natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, bank aktivlari o'sishining asosiy manbalarini yanada diversifikatsiyalash zarur. Xususan, kredit portfeli, investitsion aktivlar va raqamli moliyaviy instrumentlar ulushini muvozanatli ravishda oshirish orqali risklarni samarali boshqarish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyati kengayadi.

Ikkinchidan, aktivlar sifatini baholash va monitoring qilish tizimini kuchaytirish muhim hisoblanadi. Aktivlar hajmining o'sishi bilan bir qatorda ularning likvidligi va rentabelligini oshirish bankning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha hisobot. – Toshkent, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Moliya va bank xizmatlari statistikasi. – Toshkent, 2025.
3. Markowitz, H. (1952). Portfolio selection. The Journal of Finance, 7(1), 77–91.
4. Stiroh, K. J. (2004). Diversification in banking: Is noninterest income the answer? Journal of Money, Credit and Banking, 36(5), 853–882.
5. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2020). Digital disruption in banking and its impact on competition. OECD Publishing.
6. Vives, X. (2019). Digital disruption in banking. Annual Review of Financial Economics, 11, 243–272.
7. World Bank. Demirgüç-Kunt, A., & Martinez Peria, M. S. (2018). Banking sector performance: Reassessing the role of global banks. World Bank Economic Review, 32(2), 1–26.
8. O'ktamova, N. (2025). Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning Xitoy amaliyoti. Muhandislik va Iqtisodiyot, 3(1).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>